



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 454 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Ilxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
Raimqulova Sojida Abdusaid qizi	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
Shermatova Yakut Sabirovna	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
Turdiyeva Zilola Jalilovna	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
Xalikova Umida Mirovna	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
Kushakova Gulnora Egamkulovna	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
Normurodova Gulnora Ikromovna	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
Jurakulova Dildora Ziyadullayevna	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
Kazakova Saxiba Abdurayimovna	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
Ziyayev Adxamjon	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
Jo'rayeva Nozima Nozim qizi	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
Teshaboyeva Feruza Raximovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
Ashirova Sojida Baxromovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna	

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrazalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	
Mentorlik faoliyatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	229
Zikriyayev Zokir Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish.....	232
Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Sunnatullayeva Amina	
Professional kompetentlik va uning shaxs psixologik xususiyatlari bilan o'zaro bog'liqligi	235
Artikova Nodira Shavkat qizi	
Talaba qizlarni jismoniy faolligini rivojlantirish tasnifi va ularni orgatish metodikasi.....	240
Otasheva Oysanamxon Hamidulla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlik	245
Bekchanova Kuvanch Roximovna	
Voleybolchilarni tayyorlashda differensial vositalaridan foydalanishning zarurligini, ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari	249
Kambarov Kozimjon Ibragimovich	
2-toifa diabet bilan bog'liq stressga qarshi kurashish strategiyalari va psixologik holatlar	254
Sadikova Umida Botirovna	
Boshlang'ich ta'limda vizual va multimediyaviy texnologiyalarning pedagogik-psixologik ahamiyati	258
Raximova Faridabonu Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida VARK modeli asosida multimodal o'qitishni tashkil etish (OAK talablariga mos maqola).....	261
Raximova Mushtariy Alisher qizi	
Raqamli ta'lim muhitida veb-texnologiyalar asosidagi platformalarning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va optimallashtirish	264
Zoxidov Jahongir Botirxonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini umumta'lim jarayonida ona tili darslarida rivojlantirish metodikasi.....	272
Isoqjonova Dilfuzaxon Muxtorjon qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni mustaqil ta'lim jarayonida kasbiy malakani shakllantirishning samarali metodlari	276
Teshabayeva Oyguil Fazliddinovna	
Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqish darajasiga o'ziga ishonch va o'z-o'zini qadrlashning ta'siri	280
M. R. Sultonova	
Shifoxonalarda tashkil etilgan maktablarda bemor o'quvchilar bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglarga qo'yiladigan talablar	284
Umarova Saboxon Minavvarovna, Abdusattorova Gulxumor	



Chet til ta'limida mustaqil ishni tashkil etish masalalariga doir	287
Erkayev Elmirza Temirovich	
10–11 yoshli futbolchilarda tezkorlik sifatini rivojlantirish metodikasi.....	294
Ishmuratov Hasanboy Karimjonovich	
Jismoniy tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining samaradorligini oshirish usullari	298
Yaqubov Arslon Maxmudovich	
Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati va uning o'rganilishi	301
Dinora Eshboyeva Alisher qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy kompetensiyalarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish. Axloqning kelib chiqishi va asoslanish masalasini nazariy tahlil qilish	306
Shaxayev Bauirjan Seytgalievich	
Maktabgacha ta'limda STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llashda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	310
Ahmedova Zuhraxon Mamurovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi va zaruriyati	314
Mirzabayeva Zebo Umarovna	
Elektrolitlarda elektr toki mavzusini o'qitishda noto'g'ri tasavvurlar va ularni bartaraf etish metodikasi	317
Xoliqov Qurbonboy To'ychiyevich	
Mediata'lim asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya faoliyatini takomillashtirish ..	323
Ibodullaeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda montessori metodikasining uyg'unligi	327
Ismatova Shodiya Ne'matilla qizi, Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	
XIV asr oxiri va XV asr boshlari turkiy tillar taraqqiyotini o'rganishda "Kitob ul-Bulg'at" asarining lingvistik tadqiqi	332
Tursunaliyeva Muslimabonu Abduvosit qizi	
Informatika ta'limida interfaol o'quv majmualari asosida o'yinli texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish.....	336
Nabiyev Feruz Abdumannonovich	
STEAM loyihalari asosida maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish.....	341
Choriyor Maxmatraimov Eshmatovich	
Psixolog talabalarda tolerantlik va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish	345
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	
Raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati asosida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish (texnologiya fanini o'qitish misolida).....	348
Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna	
O'zbek tili – faxrim, g'ururim	351
H. Shukurova, M.Jumanazarova	
Zamonaviy dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni.....	355
M. Kuzibayeva	
Talabalarni ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	358
Mastonov Jahongir Mamatqul o'g'li	
Raqamli maktabda yashil o'quv dasturi: kengaytirilgan va virtual reallik texnologiyalari bilan integratsiyaning pedagogik modeli.....	362
Maxmudov Abdiqodir Yusupovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbiy faoliyat jarayonida pedagogik empatiyani shakllantirish pedagogik muammo sifatida	367
Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	371
Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova	

Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi muammolari	377
Sh. A. Xujakulov, T. B. Kadirov	
Uzoq muddat davolanayotgan bolalarning matematik savodxonligini oshirishda fanlararo bog'lanishning roli.....	383
Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li	
Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida bilish etikasi va ma'naviy-axloqiy tarbiya	387
Tursunova Nilufar Samiyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	393
Tursunova Saidra Isakovna	
Yosh avlodni tarbiyalashda hamkorlik tarbiya texnologiyasining o'rni	396
Pirlijeva Gulmira Botir qizi	
Integrativ raqamli-didaktik yondashuv asosida interfaol o'quv majmuallardan foydalanish muammolari va rivojlanish istiqbollari.....	400
Nabiyev Feruz Abdumannonovich, Mamanazarov Baxrom Jumonovich	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatda bilish jarayonlarini rivojlantirish	405
Sadirova Kamola Giyozovna	
Kurash sport turining yoshlar jismoniy va ma'naviy rivojlanishidagi ahamiyati.....	409
O'razboyeva Adiba Abdug'ani qizi	
Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlari.	413
Xalmuxamedov Bobir Taxirovich	
О развитии учебно-познавательной деятельности студентов	418
М. Халикова	
Психологические механизмы искажения истины в процессе социализации: нормативно-когнитивная модель и смешанное эмпирическое исследование	421
С. Ю. Нишанов	
Методы повышения речевой активности студентов в процессе обучения иностранному языку.....	425
Утешова Зернегул Хурметуллаевна	
Prenatal va erta chaqaloqlik rivojlanishi va rivojlanishning biologik asoslari	429
N. Mirbabayeva	
O'smir shaxsining rivojlanishi	433
Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
O'zbekistonning ma'naviy va madaniy hayotida jadidlarning tutgan o'rni	435
N. M. Qodirova	
Development of Physical Qualities Through the Use of Special Physical Exercises With Student Participation.....	439
Rikhsiev Dilshod Shavkatovich	
Tabiiy fan darslarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati	442
Umaraliyeva Baxtilaxon Raxmonali qizi	
Special Physical Exercises in Coxarthrosis During the Preoperative and Postoperative Periods of Rehabilitation.....	446
Valiev Farrukh Nigmatjonovich	
Роль цифровых технологий и дидактических принципов в учебных практик.....	449
Байметов М. М.	



BO'LAJAK OILAVIY SHIFOKORLARNING KASBIY MOTIVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Xalmuxamedov Bobir Taxirovich

Toshkent davlat tibbiyot universiteti,
1-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar va
preventiv tibbiyot asoslari kafedrası assistenti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy-motivatsion rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tizimi nazariy va didaktik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida motivatsion, tizimli, kasbiy-rivojlantiruvchi, integrativ, amaliy-faoliyatli, muammoli, kreativ va refleksiv yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berildi hamda ularning ambulator-poliklinik terapiya fanini o'qitish jarayonidagi o'rni asoslab berildi. Natijada kasbiy-motivatsion rivojlanish ko'p komponentli va integrativ pedagogik tizim asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi.

Kalit so'zlar: kasbiy motivatsiya, pedagogik yondashuv, oilaviy shifokor, refleksiya, amaliy-faoliyatli ta'lim, integratsiya.

Abstract: The article presents a theoretical and didactic analysis of pedagogical approaches aimed at ensuring the professional-motivational development of future family physicians. The study reveals the essence of motivational, systemic, professional-developmental, integrative, practice-oriented, problem-based, creative, and reflective approaches and substantiates their role in teaching the discipline "Outpatient and Polyclinic Therapy." The findings demonstrate that professional-motivational development should be implemented on the basis of a multi-component and integrative pedagogical system.

Key words: professional motivation, pedagogical approach, family physician, reflection, practice-oriented education, integration.

Аннотация: В статье представлен теоретико-дидактический анализ системы педагогических подходов, направленных на обеспечение профессионально-мотивационного развития будущих семейных врачей. В ходе исследования раскрыта сущность мотивационного, системного, профессионально-развивающего, интегративного, практико-ориентированного, проблемного, креативного и рефлексивного подходов, а также обоснована их роль в преподавании дисциплины "Амбулаторно-поликлиническая терапия". В результате доказано, что профессионально-мотивационное развитие должно осуществляться на основе многокомпонентной и интегративной педагогической системы.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, педагогический подход, семейный врач, рефлексия, практико-ориентированное обучение, интеграция.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyoji, kasbga ongli munosabati va professional barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Self-Determination Theory doirasida ichki motivatsiya professional rivojlanishning asosiy psixologik mexanizmi sifatida talqin etiladi ^[5]. Tibbiyot talabalarida motivatsiya va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy jihatdan isbotlangan ^[9]. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi ^[12]. Professional kompetensiyani aniqlash va baholash masalalari ham kasbiy motivatsiya bilan uzviy bog'liq ^[6]. Sog'liqni saqlash tizimining global islohoti sharoitida tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish zarurati ta'kidlangan ^[7; 10]. MDH olimlari kasbiy rivojlanish jarayonini refleksiya va kontekstli ta'lim bilan bog'laydilar ^[10; 9; 7]. O'zbekiston olimlari esa tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy motivatsiyani pedagogik mexanizmlar orqali shakllantirish masalasini tadqiq etganlar ^[1; 2; 3].

Zamonaviy sog'liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy yordam samaradorligi bevosita oilaviy shifokorlarning kasbiy tayyorgarligi va motivatsion barqarorligiga bog'liq. Shifokorning bilim va ko'nikmalari yetarli bo'lishi



mumkin, biroq kasbiy motivatsiya shakllanmagan taqdirda professional faoliyatda yuqori natijalarga erishish qiyinlashadi. Shu bois kasbiy motivatsiya tibbiy ta'lim tizimining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda ^[5, 7]. Kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyoji, kasbga ongli munosabati va professional identifikatsiyasini belgilovchi omil hisoblanadi. Self-Determination Theory doirasida ichki motivatsiya kasbiy barqarorlik va o'z-o'zini rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmi sifatida talqin etiladi ^[6]. Tibbiyot talabalarida motivatsiya va akademik muvaffaqiyat o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi ilmiy jihatdan asoslangan ^[9]. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlarini aniqlash va tizimlashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qo'llanilgan metodlar: ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirish; ambulator-poliklinik terapiya fanining didaktik imkoniyatlarini o'rganish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish murakkab, ko'p komponentli va integrativ jarayon bo'lib, u faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy asoslangan pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, ambulator-poliklinik terapiya fanini o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligi, real klinik vaziyatlar, refleksiya va mustaqil qaror qabul qilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida keng o'rganilgan.

A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan "self-efficacy" nazariyasi shaxsning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi motivatsiyani shakllantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi ^[4]. Ryan va Deci esa ichki va tashqi motivatsiya farqini asoslab, ichki motivatsiya barqaror rivojlanish omili ekanligini ta'kidlaydilar ^[5]. MDH olimlari kasbiy rivojlanish masalasini tizimli va refleksiv yondashuv asosida talqin etadilar. Mitina professional o'sishni shaxsning ichki rivojlanish jarayoni bilan bog'laydi ^[10]. Verbitskiy kontekstli ta'lim nazariyasini ishlab chiqib, real kasbiy vaziyatlarga asoslangan o'qitish motivatsiyani kuchaytirishini ta'kidlaydi ^[13]. Zeer esa kasbiy rivojlanishni bosqichli jarayon sifatida izohlaydi ^[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar asosida bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashda quyidagi pedagogik yondashuvlar majmuasi aniqlanib, asoslandi:

1. **Motivatsion yondashuv.** Motivatsion yondashuv talabalarda shifokorlik kasbga nisbatan ichki ehtiyoj va barqaror qiziqishni shakllantirishga qaratilgan. Ambulator-poliklinik terapiya fanida real klinik vaziyatlar, rol o'ynash va muammoli topshiriqlarning qo'llanilishi talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Talaba o'zini mutaxassis sifatida his etadi va kasbiy ahamiyatni anglaydi.
2. **Tizimli yondashuv.** Kasbiy motivatsiyani alohida elementlar sifatida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Nazariya, amaliyot, qadriyat va motivatsion omillar bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.
3. **Kasbiy rivojlantirish yondashuvi.** Kasbiy qadriyatlar, empatiya, tibbiy etika va mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv shifokorlik kasbini yuksak insonparvar kasb sifatida anglashga xizmat qiladi.
4. **Integratsiyalashgan yondashuv.** Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlaydi. Anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va klinik bilimlar real vaziyatda integratsiyalashadi.
5. **Amaliy-faoliyatli yondashuv.** Talabalarni real ambulator vaziyatlarga jalb etish orqali kasbiy kompetensiyani shakllantiradi.
6. **Muammoli yondashuv.** Klinik muammolarni tahlil qilish orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
7. **Kreativ yondashuv.** Nostandart fikrlash va moslashuvchan qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
8. **Refleksiv yondashuv.** O'z faoliyatini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash hamda kasbiy o'sishni ta'minlaydi. Yuqoridagi holatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashda birgina pedagogik yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Mazkur jarayon o'zaro uzviy bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi pedagogik yondashuvlar majmuasi asosida tashkil etilishi lozim.



1-rasm: Bo'lajak oilaviy shifokorlarning kasbiy motivatsion rivojlanishini ta'minlashning pedagogik yondashuvlar majmuasi

Motivatsion yondashuv – bu bo'lajak oilaviy shifokorlarni tayyorlash jarayonida talabalarda shifokorlik kasbiga nisbatan barqaror ichki ehtiyoj, kasbiy qiziqish va ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv bo'lib, u ta'lim mazmuni, metodlari va texnologiyalarini talabani shaxsiy hamda kasbiy maqsadlari bilan uyg'unlashtirish orqali kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsion faollikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o'qitishda motivatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu fan bo'lajak oilaviy shifokorning kundalik amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, talabalar tomonidan o'rganilayotgan nazariy bilimlarning real klinik ahamiyatini ochib berishga imkon yaratadi. Bunda klinik vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, muammoli holatlar, rol o'ynash elementlari va refleksiv muhokamalar qo'llanilishi talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Natijada talaba o'zini bo'lajak mutaxassis sifatida his eta boshlaydi, o'z bilim va ko'nikmalarining kasbiy ahamiyatini anglaydi hamda ularni chuqurroq o'zlashtirishga intiladi.

Tizimli yondashuv – mohiyatan kasbiy motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayonini alohida elementlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan, maqsadga yo'naltirilgan va dinamik rivojlanib boruvchi yaxlit tizim sifatida tashkil etishdan iborat. Tizimli yondashuv kasbiy tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlarini yagona konseptual asosda birlashtirishga xizmat qiladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o'qitishda tizimli yondashuv nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy qadriyatlar va motivatsion omillarni yagona tizimda integratsiyalash imkonini beradi. Tizimli yondashuv ta'lim jarayonining bosqichma-bosqich va



izchil tashkil etilishini taqozo etadi. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish jarayoni dastlab qiziqish va ehtiyojlarni aniqlashdan boshlanib, keyinchalik barqaror kasbiy motivlar, qadriyatlar hamda kasbiy pozitsiyaning shakllanishi bilan yakunlanadi. Har bir bosqich oldingi natijalarga tayanadi va keyingi rivojlanish uchun asos yaratadi. Ushbu izchillik talabalarida kasbiy rivojlanishning mantiqiy ketma-ketligini anglashga yordam beradi.

Kasbiy rivojlantirish yondashuvi – shifokorlik kasbiga xos bo'lgan axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va professional qadriyatlarni talabalarida shakllantirish hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatda barqaror namoyon etishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Kasbiy rivojlantirish yondashuvi shifokorlik faoliyatini nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki yuksak insoniy fazilatlar bilan uyg'unlashgan ijtimoiy ahamiyatga ega kasb sifatida anglashga xizmat qiladi. Bo'lajak oilaviy shifokorlarda bemorga hurmat, tibbiy etikaga rioya qilish, kasbiy burch va mas'uliyat, halollik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishi ularning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi hamda kasbiy faoliyatga ongli va mas'uliyatli yondashuvni ta'minlaydi. Kasbiy rivojlantirish yondashuvi natijasida bo'lajak oilaviy shifokorlarda kasbiy mas'uliyat, bemorga nisbatan empatiya, tibbiy etikaga sadoqat va ijtimoiy burchni anglash kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu qadriyatlar talabalarning kasbiy motivatsiyasini mustahkamlab, ularning nazariy bilimlarni ongli o'zlashtirishiga, amaliy faoliyatda mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Integratsiyalashgan yondashuv – ta'lim jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy motivatsiya va qadriyatlarni yagona didaktik tizimda uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Integratsiyalashgan yondashuv bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda alohida fanlar doirasidagi bilimlarni parchalangan holda emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi va kasbiy faoliyatdagi yagona maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o'qitishda talabalarning anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, patologiya kabi fanlardan olgan bilimlari real klinik vaziyatlar asosida birlashtiriladi. Natijada talaba muayyan kasallikni baholash jarayonida turli fanlarga oid bilimlarni kompleks tarzda qo'llashga o'rganadi, bu esa kasbiy fikrlashning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun muayyan didaktik shartlarni talab etadi. Jumladan, fanlararo hamkorlik asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturlari, klinik vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi o'qitish metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday sharoitda talaba o'z bilimlarini mustaqil ravishda integratsiyalashga, murakkab kasbiy vazifalarni hal etishga tayyor bo'ladi.

Amaliy-faoliyatli yondashuv – mohiyatan talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni bevosita amaliy faoliyat jarayonida egallashini ta'minlash, ularni real kasbiy vaziyatlarda faol subyekt sifatida ishtirok etishga yo'naltirishdan iborat. Amaliy-faoliyatli yondashuv shaxsning kasbiy rivojlanishida “bilish – bajarish – tahlil qilish” ketma-ketligini ta'minlovchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuvda ta'lim jarayoni kasbiy faoliyat modeliga maksimal darajada yaqinlashtiriladi. Ambulator poliklinik terapiya fanini o'qitishda bu talabalarni bemorlarni qabul qilish, dastlabki diagnostika o'tkazish, davolash va profilaktik tavsiyalar berish jarayonlariga bosqichma-bosqich jalb etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv doirasida o'qitish metodlari sifatida klinik mashg'ulotlar, simulyatsiya, rol o'ynash, amaliy topshiriqlar va mustaqil faoliyat elementlaridan foydalaniladi. Talabaning mustaqil faoliyati, tashabbuskorligi va mas'uliyati qo'llab-quvvatlanadi, bu esa kasbiy kompetensiyalarning bosqichma-bosqich shakllanishiga zamin yaratadi.

Muammoli yondashuv – o'quv jarayonini talabalarning real kasbiy vaziyatlar bilan to'qnashuviga asoslash orqali ularda kasbiy fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ambulator poliklinik terapiya fanida bu yondashuv bemorning shikoyatlari, murakkab simptomlar va noaniq klinik holatlar asosida tashkil etiladi. Talabalar ushbu muammoli vaziyatni tahlil qilib, mavjud nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni safarbar etadilar, optimal tashxis va davolash strategiyasini ishlab chiqadilar. Shu bilan birga, talaba kasbiy qarorlar qabul qilishda mas'uliyatni his etadi va o'z kasbiy harakatlarini baholashga o'rganadi. Muammoni mustaqil hal etish jarayonida erishilgan natija talabalarida kasbiy qoniqish, o'z imkoniyatlariga ishonch va kasbga nisbatan ijobiy munosabatni yuzaga keltiradi. Talabalar o'z qarorlarini asoslash, turli yechimlarni solishtirish va tanlab olish orqali ichki motivatsiyani rivojlantiradilar. Ta'lim jarayonida muammoli yondashuvni interfaol metodlar bilan uyg'un qo'llashda klinik vaziyatlarni tahlil qilish, guruhviy muhokama, rolli o'yinlar, refleksiv tahlil va simulyatsiya mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Kreativ yondashuv – shifokorlik faoliyatini faqat tayyor algoritmlar asosida bajariladigan jarayon sifatida emas, balki doimiy tahlil, izlanish va innovatsion yechimlarni talab etuvchi murakkab kasbiy faoliyat sifatida anglashga xizmat qiladi. Kreativ yondashuv doirasida o'qitishda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, klinik vaziyatlarni modellash, rol o'ynash va guruhviy muhokamalardan foydalaniladi. Talabalar bir xil klinik holatga turli nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar, muqobil diagnostika va davolash strategiyalarini taklif qiladilar hamda ularni asoslab beradilar. Bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Reflektiv yondashuv – talabaning o'z fikri, faoliyati va qarorlarini tanqidiy tahlil qilishga asoslangan metodik yondashuv bo'lib, o'qitish jarayonida o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi, klinik qaror qabul qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda bemor bilan muloqotda hissiy barqarorlik va empatiyani hosil qilish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi va jozibadorligini ta'minlaydi.



XULOSA

Kasbiy motivatsion rivojlanish ko'p komponentli pedagogik jarayon hisoblanadi. Uni ta'minlashda sakkizta o'zaro bog'liq yondashuv majmuasi muhim rol o'ynaydi. Ambulator-poliklinik terapiya fanini o'qitishda mazkur yondashuvlar kompleks qo'llanganda barqaror kasbiy motivatsiya shakllanadi. Ishlab chiqilgan model tibbiy ta'lim amaliyotiga joriy etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Sh. Tibbiyot ta'limida kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 156 b.
2. Arziqulov A.A. Talabalarda o'quv-kasbiy motivatsiyani shakllantirish texnologiyalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 132 b.
3. Karimov F.A. Tibbiyot talabalari klinik fikrlashini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 148 b.
4. Bandura A. Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change // Psychological Review. – 1977. – Vol. 84, No. 2. – P. 191–215.
5. Deci E.L., Ryan R.M. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78.
6. Epstein R.M., Hundert E.M. Defining and assessing professional competence // JAMA. – 2002. – Vol. 287, No. 2. – P. 226–235.
7. Frenk J., Chen L., Bhutta Z.A. et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems // The Lancet. – 2010. – Vol. 376, No. 9756. – P. 1923–1958.
8. Harden R.M. Outcome-based education: the future is today // Medical Teacher. – 2007. – Vol. 29, No. 7. – P. 625–629.
9. Kusurkar R.A., Croiset G., Mann K.V., Ten Cate O. Have motivation theories guided the development and reform of medical education curricula? // Academic Medicine. – 2012. – Vol. 87, No. 6. – P. 735–743.
10. Mitina L.M. Psixologiya professionalnogo razvitiya lichnosti. – Moskva: Flinta, 2004. – 400 s.
11. Rean A.A., Bocharova E.E. Professional motivation of medical students // Psychology in Russia: State of the Art. – 2016. – Vol. 9, No. 1. – P. 44–56.
12. Ten Cate O. Competency-based medical education: origins, perspectives and potentialities // Medical Teacher. – 2017. – Vol. 39, No. 6. – P. 594–602.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.